



ENDI O'ZBEK YOSHLARI FRANSIYADAGI SAN'AT VA MADANIYAT FESTIVALLARIDA FAOL ISHTIROK ETISHADI

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi vakillari hamda institutning professor-o'qituvchilari o'rtasida navbatdagi ilmiy-ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Unda elchixonaning madaniyat va hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatchisi Emili Dezormyer hamda Audiovizual hamkorlik bo'yicha mintaqaviy attashe Kristof Peko ishtirok etishdi.



Tashrif davomida mehmonlar hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti vakillari Fransiya hamda O'zbekistondagi san'at va madaniyat sohalarida ixtisoslashgan ta'lim muassasalari o'rtasida kinematografiya, teatr san'ati yo'nalishlarida hamkorlikni yo'lga qo'yish borasidagi imkoniyatlar hamda sharoitlar xususida fikr almashib, kelajakda kadrlar almashinuvini yo'lga qo'yish borasida kelishib olishdi.





Shuningdek, mehmonlar institutimiz talabalarining o'z yo'nalishlarida ishtirok etishi mumkin bo'lgan Fransiyadagi barcha festivallar xususida ma'lumot berib, o'zaro hamkorlik jarayonida o'zbek yoshlarining bunday xalqaro festivallardagi ishtirokini qo'llab-quvvatlashlarini bildirib o'tishdi.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda Fransiya elchixonasi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik davom etadi.

O'zDSMI Axborot xizmati